



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 22-yanvar

№ 1985

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Shukurlayeva Guli Yusupovna – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Aliyev Akmal Zairovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Payariq tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Saidov Maqsudbek Norboyevich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov